

2018

2017-2018-yil
umumiy o`rta ta`lim
maktablari 9-sinf
o`quvchilari uchun
tarix fanidan imtihon
materiallari javoblari

Tarqatish taqiqlanadi



9-sinf Tarix Javoblar:

1-BILET

1. Mil.av 2-ming yillikda Bobil podsholigi mesopatamiya Janubidagi eng yirik qudratli davlatga aylandi. Bobil so`zining ma`nosi xudolar darvozasi degan ma`noni anglatadi. Bobilda 8 ta darvoza bor ularning ichidagi eng ko`rkami "Ishtar" darvozasidir. Bobil davlati taraqqiyoti cho`qqisiga XAmurappiy davrida(1792-1750) erishdi. Xamurappiy tarixda qonunlar yozuvchisi nomi bilan ham tanilgan. U 247 ta qonun yozgan. Xamurappiy davlatni 30 yildan ortiqroq boshqaradi. Shundan so`ng bobilni ko`chmanchi kassettlar bosib oladi. Nihoyat mil.av VII asrda yangi bobil podsholigiga asos solinadi(Navuxodonosor II).
2. Ismoil somoniy maqbarasi. Buxoro shahrining madaniyat va istirohat bog`I hududida I Somoniy maqbarasi qad ko`tarib turibdi. U IX asr da mavrounnahrning mashxur hukmdori Ismoli Somoniy tomonidan bunyod etilgan. Maqbaraning 4 tomoni ham deyarli bir xil o`lchamli va bir xil ko`rinishdadir. Pishiq g`ishtdan ko`tarilgan ushbu maqbaraning devoir ko`inishidan bo`yra to`qimasini eslatadi. Maqbaraning usti gumbaz bilan qoplangan. Gumbaz atrofiga 4 ta qubba o`rnatilgan.
3. Amir Temur 1336-yil 9-aprelda qadimgi kesh viloyatidagi(xozirgi shahrisabz) yakkabog` tumanida(Xo`ja ilg`or qishlog`ida) tug`uladi. Uning to`liq ismi Amir TEMur ibn Amir Tarag`ay ibn Amir Barqul. Onasi Takinaxotun. Shayx Shamsiddin kulol Temurbekning piri bo`lgan.Amir temur mohir chavandoz va jangchi bo`lgan. Amir Temurning asosiy maqsadi markazlashgan davlat tuzish edi. Bu maqsadga 1370-yil 11aprelda erishadi ungacha eesa 1365-yil tarixda mshxur bo`lgan loy jangidallyosxo`ja ustidan g`alaba qozonadi. Amir Temur birin ketin hududlarni qo`lga kiritib boshlaydi. Jumladan sharqiy tirkiston tomon 1 necha m=yurish qiladi. Mug`ullarga zarba berib Farg`ona, O`rtor, Yassi va Sayramni bosib oladi. Hisor Badaxshon, Qunduzni ham egallaydi, 1381-yil Hirot, Seiston, Mazondaronni egallaydi. Shundan so`ng Saraxs, Jom, qavsiya, Sabzavor shaharlarini jangsiz egallaydi. Xorazmga 5 marta yurish qilib 1382-yilda egallaydi.Amir Temur tarixda 3 yillik[1386-1388] 5 yillik[1392-1396] va 7 yillik[1399-1404] yurishlarni amalga oshiradi. Bu yurishlar davomida Eron,Ozarbajon, Iroq, Suriya, Kavkaz kabi hududlarni egallaydi. U 1402-yil Usmoniylar imperiyasi hukmdori Boyazid bilan Anqara jangida to`qnashadi va g`alaba qozonib, Evropani Usmoniylardan asrab qolib, Yevropa haloskori nomiga sazovor bo`ladi. Amir Temur 1405-yil 18fevralda Xitoyga bo`lgan yurishida halok bo`ladi.
4. Migratsiya(lotin.ko`chaman)- u yoki bu davlat aholisining bir hududdan boshqa hududga yoki bir mamlakatdan 2-mamlakatga ko`chishi.

2-BILET

- 1.Qadimgi Yunoniston Bolqon yarimoroli va O`rtaay dengizi oralig`ida joylashgan.Yunonistonda eng qadimgi sivilizatsiyalardan biri paydo bo`lgan.2-mingyillikda Janubiy Yunoniston va Krit orolida ilk shaharlar vujudga kela boshladi (Knoos, Miken, Trinf, Pilos).Yunonlar odamlar yashaydigan joyni Oykumena deb atashgan.Yunonlarda shahar Polis deb atalgan.Og`ir qurollangan jangchilar Goplit deb atalgan.Ularning jangovar safga tuzulishi falanga deb atalgan.Afina shahriga 2 mingyillikda asos solingan.Afina aholisi 3 guruhga bo`lingan.Ular (fuqarolar, chetelliklar, qullar).Afinada xususiy maktabpolistra (14 yoshdan) oliy talim esa 3-4 yil bo`lgan.U yerda astronomiya, geometriya, geografiya,tarix o`qitilgan.Sparta davlatida mill.avv 12 asrda janubiy yunoniston(Lakonika) hududida tashkil topgan.Bu yerda periekklar yarim ozod kishilar, elotlar qullardir.Yunonlar 8-6 asrlarda kaloniyalarga asos slogan.Jumladan Oliviya, Xersones, Pantikapey va boshqalar.8-asrda 24 ta harfdan iborat alifboga asos soladi.Ularda markaziy maydon AGORA hisoblanadi.Yunonlar mill avv 490-449 yillardagi yunon-fors urushlarida g`alaba qozonadi.
- 2.Misr ehromlari.Piramidalar qadimga va o`rta podsholiklar davrida bunyod etilgan.Piramidalar 4-ming yildan buyon o`zgarasdan turibdi.Eng mashhur piramidalar Xufu, Xafra, Menkaura.Eng kattasi Xufu(yunonlar uni Xeops deb atashadi).U mill.avv 2600-yil qurilgan.Balandligi 147 metr.Piramidalar qurilishiga har biri 2 tonnadan og`irroq bo`lgan 2,5 million dona toshdan foydalanilgan.firavnlarning mumiyolangan jasad solingan tosh tobut-sarkofag bo`lgan.Piramidalarni Sfinks qo`riqlagan. Uning balandligi 20 metr bo`lgan.
3. A.Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotida tug`ilgan.Otasi G`iyosiddin Bahodir bo`lgan.Navoiy 4 yoshida maktabga borgan.10-12 yoshida she`rlar yoza boshlaydi.15 yoshida shoir sifatida elga taniladi.Turkiy tildagi she`rlarini Navoiy, Forsiy tildagilarini Foni taxallusi bilan yozdi.U 5 kitobdan iborat Hamsani yaratdi.Bundan

tashqari o'zbek tilidagi she'rlarini to'plab 4 qismdan iborat "Manolar xazinası" devonini tuzdi. Keyinchalik esa forsiy tilda yozgan she'rlarini to'plab "Devoni foniy"ni yaratdi. Navoiy 1501-yil vafot etdi.

4. Rezidensiya- lotincha bir davlat diplomatic vakillarining qarargohi.

3-BILET

1. Qang' davlati. Xitoy manbalaridan bu davlatning Qang'yuy deb atalgani malum. Mill. avv 3-asrda unga saklar asos solgan. Uning poytaxti Qang'dez bo'lgan. Xitoy manbalarida bu shahar Bityan deb atalgan. Qang' davlatining asosiy shaharlar Sirdaryo sohillari bo'ylab joylashgan. Mill. avv 2-asr oxirida qudratli davlatga aylandi. Uning hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tgan. Uning aholisi qang'arlar deb atalgan. Milodiy 3-asrda Qang' davlati parchalanib ketdi.

2. Geradodning aytishicha Semiramida osma bog'larini qadimgi Ossuriya podshohi-malika Semiramida (asl ismi Shommuramat) mill. avv 8-asrda barpo ettirgan. Bog' supaga o'xshash qilib qurilgan. Supalar ustiga tuproqlar tashlanib unga xar hil gullar va ko'chatlar o'tqazilgan. Har bir qavatga zinalar orqali chiqilgan. Har kuni ko'plab qullar tepaga suv tashishgan. Bog'ni ustunlar ushlab turgan. Keyinchalik bu bog'ni Bobil podshosi Novoxondonosor 2 vayron qilib tashlagan.

3. A. S. Pushkin 1799-yil Moskva shahrida tug'ildi. Peterburg litseyida o'qib talim oldi. Pushkin podshoning mustabit xokimyatini ag'darish uchun kurashgan dekabristlarga hayrihohlik bildirdi. O'z sherlarida zulm va krepastrylikni qoraladi. Bu esa podsho va hukmron tabaqalarda norozilik uyg'otdi. Shu tufayli u bir necha marta surgun qilindi. Pushkinning dushmanlari turli ig'volar tarqatib oxir oqibatda Fransiya elchisining o'g'li J. Dantes bilan duel uyushtirishga erishdilar. Ulug' shoir duelda halok bo'ldi.

4. Konvensiya-(lotincha shartnoma) ko'p tomonlama xalqaro shartnoma turlaridan biri

4-BILET

1. Franklar davlati. Franklar qadimda Reyn daryosining quyi oqimida yashashgan. Ular german qabilalari ichida eng madaniyatli hisoblangan. Jumladan gotlar va langobartlar kabi hayvon terisidan emas matodan kiyim kiyishgan. Soch-soqollarini olib yurishgan. Franklarda faqat qirol oilasiga mansub kishilargina uzun soch bilan yurishlari mumkin bo'lgan. Franklar davlatiga Mirovinglar sardori Xlodvig 486-yilda asos soladi. 10-asrda Fransiya deb atala boshlaydi. Franklar rimdan xristianlikni qabul qiladi. Franklar 534-yilda Burgundiyani 536-yilda esa Provansni egallaydi. Xlodvig davrida mamlakat viloyatlarini graflar boshqargan. Ular yana sud ham qilishga haqli bo'lishgan. Xlodvig hukmronlik davrida "Sali haqiqati"ni yozdirgan. 2. Ichan qal'a Xiva shahrining shaxriston qismidir. Unga Bog'cha, Polvon, Tosh, Ota deya nomlangan to'rtta darvoza orqali kirilgan. Ichan qal'aga Muhammad Aminxon Kalta ninor nomi bilan mashhur bo'lgan minorani qurdirdi. Ichan qal'adagi minoralar qo'sh usulida (ro'parama-ro'para) qurilgan. Ichan qal'a 1961-yil memoriy yodgorlik sifatida alohida muhofazaga olingan va muzey qo'riqxonasiga aylantirilgan. Uning maydoni 26 gektarni tashkil qiladi. Unda 54 ta obida joylashgan. 1969-yildan muzey-qoriqxona Xiva "Ichan qal'a muzey qo'riqxonasi" deb ataladi. 1990-yilda Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi.

3. Al-Xorazmiy (783-850) yillarda yashab ijod qilgan. Xorazm diyorida tug'ulgan. So'ngra u xalifa Mamun zamonida (813-833) Bayt ul hikmada mudir sifatida faoliyat ko'rsatgan. U 20 madan ortiq asar yozgan va bizgacha 10 tasi yetib kelgan. Matematikaga oid asarlari "Al jabr val muqobala" asari, "Hind hisobi haqida"; Geografiyaga oid "Kitob surat ul arz"; Tarixga oid "Kitob at tarix" kabilar. Xorazmiyning "Al jabr" risolasi 12 asrdayoq Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilinadi. U algebra faniga asos soldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

4. Demoblizatsiya-harbiy xizmatdan bo'shatish.

5-BILET

1. Arab qabilalari arabiston yarimoroli va unga tutash hududlarda yashagan. Ular somiy xalqlaridan bo'lib somiylarga arablardan tashqari yahudiylar, ossuriyaliklar, finikiyaliklar va oromiylar ham kirgan. Arabistonning eng taraqqiy etgan viloyatlari-Yaman va Xijoz. Rim tarixchilari Yamanni "Baxtli arabiston"(Arabia felix) deb atashgan. Eron shohi Xusrav I Yamanni 570-yilda egalladi. Muhammad payg'ambar 570-yil Makkada tug'ildi. Otalari Abdulloh, onalari Omina, bobosi Abdulmutallib, amakisi Abu Tolib. 610-yilda payg'ambar bo'ladi. U 622-yilda Makkadan Madinaga ko'chadi (hijrat). 630-yilda arablarning katta qismi musulmon bo'ladi. Shundan so'ng mamlakatni xalifalar boshqaradi. Bulardan Abu Bakr (632-634), Umar (634-644), Usmon (644-656), Ali (656-664). Usmon davrida Qur'on to'liq holiga keltiriladi. Qur'on 114 sur'adan iborat bo'lib, 23 yil nozil qilingan.

2. Xudayorxon saroyi Xudayorxon tomonidan 1863=1870- yillarda qurilgan. Memoriy obida gumbazsimon, "CHOR" uslubida qurilgan. Obidaning qurilishida xom va pishtgan g'isht, marmar, quyma ganch, parket, tosh, yog'och, tunuka har xil qimmatbaho toshlardan foydalanilgan. Saroyning bosh tarsi 1 qavat qilib qurilgan, pishiq g'ishtdan [26x26x5]. Uning peshtoqi bo'lib uning uzunligi 40 m bo'lgan. Saroy 3 qismdan iborat bo'lgan. 1- qismi saroy, 2va 3- qismlari xon harami va istiqomat xonalari bo'lgan. 1925- yildan saroyda Qo'qon shahar o'lkasining muzeyi faoliyat ko'rsatgan.

3. Maxmudxo'ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqandda tug'ilgan. Behbudiy o' davrining diniy va dunyoviy bilimlarini chuqur egalladi. Samarqandda yangi usul maktabini ochdi. Bu maktab uchun qator darsliklar yaratdi. Chunonchi "Savod chiqarish kitobi" "Qisqacha umumiy geografiya" kabilar. Behbudiy yosh avlod tarbiyasida teatrning ham katta ro'l o'ynashini to'g'ri baholay oldi. Padarkush asari katta shuxrat qozondi. Behbudiy Samarqand deb ataluvchi gazeta va Oyna deb ataluvchi jurnal nashr ettiradi. Behbudiya kutubxonasini tashkil qilgan. O'rta Osiyo jadidlarining otasi deb tan olingan. 1919-yil vafot etgan.

4. Doktrina-(lotincha talimot) siyosiy rahbarlik tamoyili.

6-BILET

1. Old Osiyo davlatlari 2-mingyillikda tashkil topgan. Ular Ossuriya, Xett, Mitanni, Urartu kabi davlatlardir. Ossuriya mill. avv 20 asrda tashkil topgan. Uning poytaxti avval Oshshur keyin Nineviya bo'lgan. Asosiy mashg'uloti dehqonchilik va savdo-sotiq bo'lgan. Oshshurbanapal davrida sopol taxtachalardan osiyodagi eng yirig kutubxona barpo ettiradi. 605-yilda Ossuriya davlati vayron bo'ldi. Xett davlati mill. avv 18-asrda hozirgi Turkiya hududida tashkil topgan. Poytaxti Xattusa bo'lgan. Asosiy mashg'uloti dehqonchilik va chorvachilik. Mitanni hozirgi Suriya hududida tashkil topgan. Urartu Kavkazorti, Turkiyaning sharqi va Armanistonda tashkil topgan. Aholisini urartlar deyishgan. Poytaxti Tushpa bo'lib 9-8 asrlarda Sardur I va Menua davrida gullab yashnagan.

2. Sitorai Mohi Hosaning qurilishi 19-asrning o'rtalarida boshlangan va 1914-yilda qurib bitkazilgan. U Buxoro markazidan 2.5 km janubda joylashgan. Amir bu yerdan yozgi dam olish sifatida foydalangan. Uning qurilishida an'anaviy paxsa, guvala va xom g'isht bilan birga faner, tunika kabi qurilish ashyolaridan foydalanilgan. Hozirda majmua UNESCO tashkilotining Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritilgan.

3. Mahmud Zamaxshariy 1075-yil Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida dunyoga kelgan. U Buxoro, Marv, Nishopur, Isfaxon, Bag'dod va Makkada hayot kechirib ijod qiladi. U 50 dan ortiq asarlar yozgan. Uning arab tili fonetikasi va morfologiyasiga bag'ishlangan "Al mufasssat", Qur'oni karim tasviriga oid "Al kashshof" asarini yozadi. Zamaxshariy arab va g'ayri arablar ustoz, Xorazm faxri kabi nomlar bilan ulug'langan.

4. Kapital-o'z egasiga daromad keltiruvchi xususiy mulk (fabrika, zavod va boshqalar) o'z-o'zini ko'paytiruvchi sarmoyadir.

7-BILET

1. Ahamoniylar davlatiga mill. avv VI-asrda Eronda asos solingan. Uning asoschisi Kir II. U ulkan lashkar to'plab Armaniston, Lidiya, Bobilni zabt etdi, O'rtayerdengiziga chiqib Falastin va Finikiyani bo'ysundirdi. Doro I (522-486) yillarda hukmronlik qilgan. U qora dengizdagi skiflar ustiga yurish qildi. Shundan so'ng bolqon sharqidagi Frakiyani bosib oldi va yunon-fors urushlari boshlandi. U darik nomli oltin tanga zarb

ettirdi. Persepoldan o'rtayerga qadar shoh yo'liga asos soldi. Davlatni satrapliklarga bo'ldi. Markazi Suza va Ekbatana shaharlari. Aleksandr Makedonskiy mill. avv 330-yilda ahamoniylar davlatini zabt etti.

2. Ko'kaldosh madrasasi Ko'kaldosh tomonidan 1551-1575-yillarda bunyod etilgan. Memoriy obida o'rta asrlarda keng qo'llanilgan "chor uslubida" bunyod etilgan. Madrasaning umumiy o'lchovi 67.7x 44.9 metrni tashkil etadi. U yetti gumbazli. Madrasaning old tomoniga zinapoya ishlangan. 1998-yil asl holiga keltirilgan. Madrasa dastlab uch qavatli bo'lgan. Peshtoqi bilan balandligi 19.73 metr bo'lib sirkor parchin va girrix naqshlar bilan bezaklangan.

3. Imom Al Buxoriy. Muhammad ibn ismoil al Buxoriy 810-870-yillarda yashab ijod qilgan. Al buxoriy islom talimotiga oid 20 dan ortiq asar yozgan. Uning birgina "Al jome as saxix" asariga 7275 ta hadis kiritilgan. Uning hadislarini islom dinida qur'oni karimdan keyin turuvchi asosiy manbadir. 1998-yil oktabrda buyuk mutafakkir Imom al Buxoriy tavalludining 1225 yilligi nishonlandi. Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'ida unga atab yodgorlik barpo etildi.

4. Urbanizatsiya-(fransuzcha va lotincha-shaharga mansub) jamiyat hayotida shaharlar rolining va shahar aholisi salmog'ining ortib borishi. Qisqacha shaharlashuv.

8-BILET

1. Kushon podsholigiga milodiy 1 Nasrda Guyshuan qabilasidan bo'lgan Kudzula Kadfiz asos soladi. Uning davrida Afg'oniston va Kashmir qo'shib olinadi. Vima Kadfiz davrida davlad chegarasi yanada kengaydi. Kanishka davrida (78-123) poytaxt Baqrtiyadan Peshovarga (Pokiston) ko'chirildi. Surxon vohasidagi Kushon davlati yodgorliklari Dalvarzintepa, Fayoztepa, Zartepa, Xolchayon, Ayritomdan topilgan. Kushon davrida o'rta osiyoda oromiy yozuvi keng tarqaldi. Kushon yozuvi qadimdan mavjudligini Surxko'tal (Afg'oniston) yodgorligidan topilgan yunon alifbosidagi kushon bitiklari ham tasdig'laydi. Kanishka davrida Hindistonning bir qismi bosib olinadi. Shundan so'ng buddaviylik va zardushtiylik birgalikda milodiy 8-asrgacha o'rta osiyoda saqlanib qoldi. Keyin islom dini tarqalgan.

2. Buxoro arkinining qurilishi milodning boshlariga to'g'ri keladi va Eron podshosi hamda Siyovush nomi bilan bog'liqdir. Demak 7-asrga kelib Buxoro arki yaxlit memoriy ansambil holiga kela boshladi. Biroq bu jarayon 16-asrda yakun topadi. Ark qal'asi ilm-fan vazifasini ham bajargan. Qal'a devorining uzunligi 789.6 metr balandligi 16-20 metr maydoni 3.96 hektarni tashkil qiladi.

3. Abu Ali Ibn Sino 980-yilda Buxoro yaqinida Afshona qishlog'ida dunyoga keldi. Maktabni bitirgach ustozlari Abu Abdulloxdan mantiq, falsafa, riyoziyot va fiqh ilmini o'rganadi. Ibn Sino 17 yoshidayoq etiborli hakim va olim bo'lib yetishadi. U Urganchdagi xorazm mamun akademiyasida olimlar qatorida ijod qildi. U 1037-yil vafot etadi. Ibn Sino 450 dan ortiq asar yozadi va 43 tasi tibbiyotga doir. Uning 5 jildlik "Al qonun fit tib" (Tib qonunlari) nomli qomusiy asari 12-asrdayoq lotinchaga tarjima qilinib, to 17-asrgacha yevropa tabobatida asosiy qo'llanma sifatida foydalanilgan.

4. Feyleton-(fransuzcha) kundalik turmushda ro'y beradigan salbiy hodisalarni tanqid qilib yozilgan gazeta yoki jurnal maqolasi.

9-BILET

1. Qadimgi rim davlatiga mill. avv 753-yilda asos solingan. Bu terda eng katta daryo Po daryosi. Italiya so'zi yunoncha vitulus so'zidan buqa, buzoqcha degan ma'noni anglatadi. Mill. avv 8-asrda bu yerda 12 ta shahardavlatlarga asos solinadi. Rim davlatiga aka-uka Rem va Romul asos soladi. Rimda 509-yilda (6-asr) respublikaga asos solinadi. Rimda tub aholi-patretsiy; ko'chib kelgan aholi esa-plebeylar deb atalgan. Mamlakatni ikki konsul boshqargan. Rimda oddiy aholini manfaatini himoya qiluvchi xalq tribuni lavozimi ta'sis etilgan. Mill. avv 3-asr boshlarida barcha fuqarolar qonun oldida teng degan qonun qabul qilindi. Rimda markaziy maydon forum. Rimda 14 yoshga to'lmaganlar pushti toga, 14 yoshdan oshganlar oq toga kiyib yurishgan. Rimning bosh xudosi (chaqmoq) Yupiter, odil sudlov ilohasi Yustitsiya. Bu yerda akveduk suv quvuri, altar esa qurbonlik qiladigan joy.

2. Muhammad Rahimhon madrasasi Muhammad Rahimhon 2 tomonidan 1871-yil qurilgan. Madrasa yozgi va qishki masjid, darsxona, kutubxona va xujralardan iborat. Binoning old tomoni ikki qavat qolgan tomonlari bir

qavatli.Hovli76 ta bir qavatli xujralar bilan o'ralgan.Me'moriy inshaot "chor" uslubida bunyod etilgan.Madrasani bunyod etishda g'isht va toshlardan loy, yog'och, tunika, sement, marmar kabi materiallardan foydalanilgan.Madrasa 1990-yilda Xivadagi Ichan qal'a umumjahon madaniy merosiga kiritilgan.

3.Mashrab 1640(1647)-yilda Namanganda tig'ilgan.7 yoshligida xad-savodi chiqqan.15 yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlagan.Mashrab o'z she'rlarida hukmron tabaqalarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulmi ochko'zligini qoralaydi.U 18 yil davomida ko'plab mamlakatlarni kezib chiqadi.Uning "Devoni Mashrab", "Eshoni Mashrab" kabi romanlari bor.U 1711-yilda Balx hokimi Maxmudbiy Qatag'on tomonidan o'ldirildi.

4.Tuzem-yerli xalq mahalliy aholining mustamlakachilar tomonidan atalishi.

10-BILET

1.Vizantiya davlati .Imperator Feodosiyning o'g'illari 395-yilda davlatni 2 ga bo'lib olishadi. Ulardan biri poytaxti Konstantinopol bo'lgan.Bu davlat hududiga bolqon, misr, suriya, falastin, kavkaz, kichik osiyo,krit va kibr orollari kirgan.Davlat tili yunon tili.6-asrda imperiyani Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Edessa shaharlari gullab yashnagan.Konstantinopol osiyo va yevropani bog'laydigan oltin ko'prik hisoblangan.Vizantiya oltin puli nomesma.Vizantiya imperiyasini Vasilevs (yunoncha podsho) boshqargan.Maslahat organi sinklit (lotincha senat) bo'lgan.Vizantiya imperiyasi o'z qudrati cho'qqisiga Yustinian I davriga to'g'ri keladi (527-565).Xotini Feadora.

2. Sherdor madrasasi 1619-1636-yillar davomida Yalangtushbey Bahodir tomonidan quriladi. Mumoriy obidaing qurilishida bir qator ashyolar ishlatilgan: Loy, yog'och, tosh va maxsus qir qotishmasidan foydalanilgan. Sherdor madrasasi gumbazsimon qo'sh va chor uslubida qurilgan. Madrassa 2 qavatli bo'lgan, ichida 54 ta hujra bo'lgan. Samarqand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan Sherdor madrasasi Yunesko tashkilotining butun jahon yodgorliklar ro'yhatiga kiradi.

3. Abu Nasr Farobiy 873-yilda Farob shahrida tug'ulgan. U avval ona shahrida keyin esa Samarqand, Buxoro va Bag'dodda bilim olgan. Umrining oxirida Damashq va Xalabda yashagan. 160 dan ortiq asar yozgan ulardan: "Arastuning Metofizika asariga sharh", "Musiqi kitobi", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil odamlar shahri haqida". Farobiy sharqda Arestoteldan keying yirik mutaffakkir-"Mualim us-Soniy" nomi bilan shuhrat topdi.

4. Manifest(lot)- hukumatning juda muhim voqea munosavbati bilan xalqqa qilgan yozma murojati.

11-BILET

1. Kiyev Rusiga 882-yilgan Oleg asos sladi. Undan so'ng taxtga Igor o'tiradi(912-945) ko'chmanchi bijanak qabilalarga qarshi urishdan boshlaydi. Igor 945-yil Drevlyan qabilalariga qarshi janggda xalok bo'laadi. Uning o'g'li Svyataslav 964-yil 22 yoshida taxtga oo'tiradi. Xazar xonligini mag'lub etadi. Gullab yashnagan davri Yaroslav hukmronligiga to'g'ri keladi(1019-1054). Kiyevda avliyo sofiya ibodat xonasini qurdiradi. Fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yoicha rus haqiqatini tuzadi.

2. Tillakori madrasasi 1646-1660-yillarda Yalangtush BAhodir tomonidan qurdiriladi. Inshoat chor uslubida qurilgan. Uning qurulishida pishtgan va xom g'isht, loy, yog'och, oltin suvi va qimmatbaho toshlardan foydalanilgan. Hovlisiga 50x50 metr marmar yotqizilgan. 1930-yillarda bu yerda maxsus ustaxona tashkil etilgan. Xozirda davlat muxofazasiga olingan. Memoriy inshoat Yunesku=o tashkilotining butun jahon yodgorliklar ro'yhatiga kiritilgan.

3. Muhammad Rizo Ogahiyning asl ismi Muhammad Rizo Ernazarbiy o'g'lib o'lib 1809-1874-yillarda yashagan. 16 ta tarixiy asarlar muallifi. U arab, fors, turkey tilalrini puxta bilagn. Xorazm ning 1812-1872yillar tarixiga bag'ishlangan asra yozgan. Xiva xonligiga oid "Rioz ud-Davla", "Zubdat ut-Tavorix", "Gulshani Davlat", "Shohidi Iqbol" nomli asarlar yozgan. U shoir ham atrixnavis va tarjimon bo'lgan.

4. Muvaqqat(arabcha)-Vaqtincha, muayyan muddatga tuzilgan hukumat.

12-BILET

1. Saljuqiylar davlati XI asrda oldiosiyoda tashkil topgan. Ular 1071-yil manikistir jangida Vizantiya ustidan g'alaba qozonadi. Saljuqiylar davlatining asoschisi Saljuqning nabirasi Sulton tug'ulib asos solagan. U davlatning yashagan davri 1038-1308-yil. Bu yerda davlat yerlarining katta qismini iqto tarzida harbiylar va amaldorlarga xarbiy xizmatevaziga berilgan. 1243-yildagi mug'ullar bosqini davlatni keying taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Saljuqiylar davlati parchalanib ketdi.
2. Ulug'bek madrasasi Mirzo ulug'bek tomonidan 1417-1420-yillar davomida bunyod etilgan. Madrasa REGiston maydonidagi 1-qurilgan inshoot bo'lib qo'sh minorali, gumbazli, arkli, chor uslubida qurilgan. Uning qurilishida g'isht(xom va pishiq),loy, yog'och keng foydalanilgan. Memoriy obidaning bugungi xolati xaqida gapirsak, o'chib ketgan devordagi bezaklari qayta tiklangan. V.Shuxov va Muerlar loyihasi asosida shimoliy sharqiy minorasi tamirlangan. Uning ravoqining balandligi 16,5 metr. Samarqandning 2750 yilligidan Yunesko tashkilotining butun Jahon yodgorliklar ro'yhatiga kiritilgan.
3. Abdulla Avloniy 1878-yil Toshkent shahrida hunarmandlar oilasida tug'uldi. U maktab va madrasada talim olib, ma'rig'fatli va chuqur bilim sohibiga aylandi. A. Avloniy o'lkada talim matbuot teatr sohalarini rivojlarinishiga katta hissa qo'shib, 1907-yil "shuhrat" gazetasiga asos soladi. O'zi taashkil qilgan yangi usul maktabi uchun, "Birinchil muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy guliston yohud Axloq" asarlarini yaratdi. Turon nomli teatr guruhiga asos soldi.
4. Jadid(Arabcha)-yangi degan ma'noni bildiradi.

13-BILET

1. Mug'ul qabilalari qadimfdan Janubiy sibir MANjuriya Va Mug'iliston hududlarida yashagan ular asosan ko'chmanchi chorvachilik bilan shugullangan. XII mulkiy tabaqalanish kuchaygan. Urug'chilik jamolari alohida ko'chmanchi xo'jalik- ayillarga bo'lingan. Ular shomonlikka sig'inishgan. Asoschisi Temuchin(1155-1227) uning laqabi Chingizxon(Kuchli, qudratli) bo'lgan. Mug'ullarda asosiy qo'shinda tashqasri Keshik deb noomlangan maxsus gvardiya shakillantirgan[10000] askar. Ular o'tovlarda yashagan. Chingizxon 1224-yilda zabt etgan hududlarni o'z o'g'lillari Jo'ji, Chig'atoy, O'qtoy va Tuluga uluslarga bo'lib beradi. O'qtoyni taxt voris deb tayinlaydi. Ulus(mug'ulcha)- davlat.
2. Abdullaxon bandi Nurota tumanidagi oqchob yaqinidagi Beklar soy darasida joylashgan. Qadimgi to'gon qoldiqlari o'rnida ulkan band qurdirdi. Abdullaxon bandi Uning ravoqlarining togon tepasida turib ochish yoki berkitishi mumkin, maqsad esa o'sha atrofdagi boz yerlarni sug'orib dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi. Bu tadbirlar o'z navbatida qishloq xo'jalikni rivojlanishini taminlagan. Abdullaxon II 1534-1598-yillarda yashagan.
- 3.Z.M.Bobur 1483-yil 14-fevraldaAndijonda tug'ilgan.Otasi Umarshayx Mirzo bo'lgan.Umarshayx Mirzo 1494-yilda vafot etadi hokimyat 12 yoshli Boburga qoladi. Bobur Samarqandga 4marta yurish qiladi. 1496,1497,1500,1511-yillarda.Bobur 1501-yildagi mag'lubiyatidan so'ng Kobulga ketadi. 1512-yilda Ubaydulla sultondan mag'lub bo'lib kobulga ketadi. Kobulni o'gli Kamron Mirzoga qoldirib o'zi Hindistonga yurish qiladi 1526-yilda Dehlini egallaydi. 1526-yili 27-aprelda Bobur nomiga xutba o'qiladi. Bobur 1530-yili 26-dekabrda 47 yoshida vafot etadi. Boburni Bog'I Oromga dafn etadi. Z.M.Bobur Mubayyin Turkiy Devon Boburnoma asarlarini yozadi. Boburnoma asari 1493-1529- yilgi voqealar haqida bayon etilgan. Boburning 510 yilligi 1993-yili keng nishonlandi.
- 4.Ispravnik-uyezd politsiyasi boshlig'i.

14-BILET

- 1.Choson koreyscha-" tongi tarovat" ilk koreys davlatidir.Uning asoschisi Tangun.Mill.avv 1-asrda Choson uch qirolikka bo'linadi.Bular:Pekche, Silla, Kogryo.Kogryo davlati 4-5 asrlarda koreya yarim orolining shimoliy qismida(lyadun) joylashgan.4-asr boshlarida xitoyliklarni o'z hududidan surib chiqaradi. Keyinchalik esa Parxe davlatiga asos soladi.10-asrda ko'chmanchi kidanlar bu yerni bosib oladi.Koreya yarim orolining janubida 3-4 asrlarda Pekche davlati vujudga keldi.4-asrda markazlashgan davlatga aylanadi.Hattoki

Pekchelik Van In yaponiya taxt vorisiga ustozlik qilgan. Pekche sulolasi qirollari tufayli Koreyaga xitoy yozuvi va iyerogliflari hamda buddizm kirib kelgan. Silla qirolligi Koreya yarim orolining janub-sharqida joylashgan. Dastlab uch qirollik ichida eng zaifi bo'lgan Silla xitoydagi tan sulolasi bilan 668-yilda ittifoq tuzib Koreyani o'z qo'l ostida birlashtiradi. 8 asr o'rtalarida oltin davri bo'ldi.

2. Abdullaxon madrasasi Abdullaxon 2 tomonidan 1588-1560-yillarda bunyod etilgan. Memoriy obida qo'sh uslub namunasi hisoblanadi. Uni qurishda maxsus qir qotishmasidan foydalanilgan. Har ikki tomondan peshtoqlar joylashgan. Darvozadan o'tib ikki yonidagi katta xonalar-darsxona va masjidga kiritiladi. Uning alohida jihati shundaki madrasa o'z ro'parasidagi Madarixon madrasasiga qarab biroz egilgan holatda qurilgan. Memoriy obida 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan UNESCO butunjahon yodgorliklari merosiga qo'shiladi.

3. Najmiddin Kubro. [1145-1221]-yillarda yashagan. U Xorazmda Kubroviya tariqatiga asos soladi. Kubroviya tariqatida Vatanga muhabbat nihoyatga kuchli bo'lgan. Mo'g'ullarning Urganch qamalida Najmiddin Kubro ham qatnashgan. Mo'g'ullar unga shaharni tark etishini aytadi. Ammo N. Kubro "Yo Vatan yo sharaflil o'lim" deb aytgan Chingizxonning taklifini rad etgan. N. Kubro murossasiz jangda 76 yoshida jangda halok bo'ladi.

4. Zemstvo-[ruscha]-vakolatlari cheklab qo'yilgan mahalliy idora, boshqarma.

15-BILET

1. Eftalla davlati. Eftallarning ilk ajdodlari Xitoyning shimoli-g'arbida yashagan. [Xesi] Ular 3-asrda Turonning janubiy va Xarkon[kaspiy] dengizining shimolida o'rnatilgan. 5-ning o'rtalarida diyorimizga kirib kelgan eftallar yozma manbalarda fetal xafal xafal degan nomlar bilan tilga olinadi. Eftal degan nom ilk bor xepal shaklida 5-asr arman manbalarida uchraydi. Eftallar Eron sasoniylari bilan jangda g'alaba qozonib Eron ustiga katta miqdorda o'lpon soladi. Hukmdorlari Po'ro'z[459-484], Kubot (488-531), Anushervon(531-579) keyinchalik eftallar Kobul, Panjob, Urimchi, qorashar, Xo'tan, Qoshg'ar shaharlarini egallaydi. Eftallar davlati V asrning 2-yarmi va 6-asrning boshlarida o'rta Osiyo sharqiy Eron Shimoliy Hindiston va Shimoliy Turkiston yerlarini birlashtirgan.

2. Mir Arab madrasasi Shayx Abdulla Yamaniy tomonidan 1520-1536-yillar oralig'ida bunyod etilgan. Madrasa chor ishlab qurilgan. Madrasaning umumiy tarxi 68,5x51,8 m ovli, 35,4x31,3 m darsxona 8x8, hovli 114 ta hujradan iborat. Madrasaning asosi chuqur qilinib, tog'-toshlari bilan mustahkamlangan. Uning go'rxonasida Uboydullaxonning yog'ochdan yasalgan sag'anasi va Mir Arab, uning qarindoshlari qabrlari bor. Shurolar davrida uning faoliyati vaqtincha to'xtatilganiga qaramay 1945-yil yana tiklandi. Mustaqillik yillarida Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan madrasa peshtoqi va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkor naqshlari va yozuvlar qayta tiklangan.

3. Bahouddin Naqshbandiy 1318-yilda Buhoro yaqinida qasri hinduon qishlog'ida matolarga naqsh bosuvchi hunarmang oilasida dunyoga keldi. Yoshligida talim olish bilan bir qatorda kimxob matoga gul bosuvchi hunarmand oilasida dunyoga keladi. Bahouddin "Hayotnoma", "Dalil al oshiqin" nomli asarlar yozib o'z tariqatini yaratdi. Uning Dilba yoru dastba kor [Ko'ngling Allohda bo'lsin qo'ling mehnatda. U tarkidunyochilikni rad etib mehnatsevarlik, odillik va bilimdonlikni targ'ib etadi.

4. Duma[ruscha-o'ylash, fikrlamoq]-Rossiya imperiyasining qonun chiqaruvchi hokimiyati, shahar dumasi – shaharning o'zini-o'zi boshqarish organi.

16-BILET

1 G'aznaviylar davlati G'aznaviylar davlatiga 962-yili G'azna viloyati noibi Alptegin asos solgan.

G'aznaviylarning siyosiy nufuzi Sobuqtegin davrida yuksaladi. [977-997]. Mahmud G'aznaviy davrida [997-1030] sharqning qudratli davlatiga aylanadi. M. G'aznaviy Xuroson hududini so'ng Xorazimni ham egallaydi. [1017] Ammo Masud G'aznaviy davrida [1030-1040] mamlakat tanazzulga yuz tutadi. Oqibatda 1186-yilda G'aznaviylar davlati butunlay tugatiladi. G'aznaviylarda viloyat hokimi voliy shahar hokimi esa rais deb yuritilgan. Viloyatda boshqaruv ishlari amid, shaharlarda esa kutvol tomonidan amalga oshirilgan. Bosh qo'mondon –sipohsalar, lashkarboshi –salar, harbiy qismlar boshlig'I –sarxang bo'lgan.

2.Registon ansambili. 17-asrda Samarqand Registon ansambilining hozirgi qiyofasi shakillantirildi. Samarqand hokimi Yalangto'sh bahodir 1619-1635-yillarda vayrona holatiga tushib qolgan Registon maydonida Ulug'bek madrasasi qarshisida SHerdor madrasasini uning yonida 1646-1660-yillarda Tillakori madrasa – masjidini o'z mablag'laridan bunyod ettirgan. Registon ansambili o'zining rang – barang koshinkor peshtoqlari bilan Markaziy Osiyoning noyob durdonasidir.

3.Nikolay Kopernik [1473-1543]-yillarda yashagan. N.Kopernik Krakov[Polsha] va Italiya universitetlarida o'qidi. Matematika, falsafa, huquqshunoslik va tibbiyot kabi fanlarni o'rgandi. U yerning quyosh atrofida aylanishini isbotlab berdi. U o'z xulosalarini 1543-yilda chop etilgan "Osmon jismlarini aylanishi haqida" nomli kitobda bayon etdi. U maxsus moslamalar yordamida osmon jismlarini 30 yil kuzatgan.

4.Volost.Uyezd tarkibiga kirgan bir necha qishloq yoki ovullardan iborat hududiy bo'linma.

17-BILET

